

G'alaba bog'i" va "Shon-sharaf" muzeyiga sayohat



25.04.2023

G'alaba bog'i" va "Shon-sharaf" muzeyiga sayohat

YeRK fakulteti 104 - guruh talabalari bilan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga va Shon-sharaf muzeyiga sayohat uyushtirdik.



Majmua fashizm ustidan qozonilgan shonli g'alabaning munosabati bilan tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan beqiyos hissasi, bag'rikenglik va insonparvarlik fazilatlari- haqiqiy jasorat va matonat timsolidir.



Yodgorlik majmuasi hozirgi va kelajak avlodlarga O'zbekistonning Buyuk G'alabaga qo'shgan munosib hissasi to'g'risida aytib berish uchun mo'ljallangan. Talaba yoshlar bilan ushbu majmuadan katta taassurotlar bilan qaytdik.

YeRK fakulteti tyutori D. Egamova axboroti

Universitet matbuot xizmati